

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI
KENGASHINING 4 - SONLI MAJLIS BAYONNOMASIDAN
KO'CHIRMA

“29” oktyabr 2024-yil

Chirchiq sh.

QATNASHDILAR: Universitet Kengashi a'zolari. Jami: 32 kishi.

KUN TARTIBI: Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladigan “Iqtidor” tanlovi g'oliblarini tasdiqlash to'g'risida.

ESHITILDI: Kun tartibidagi masala yuzasidan universitet Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i J.Q.Abdusamatov so'zga chiqdi. Universitet Kengashining 2024-yil 29-avgustdagi 1-sonli kengaytirilgan majlisi qarori bilan tasdiqlangan “Chirchiq davlat pedagogika universiteti iqtidorli talabalarini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladigan “Iqtidor” tanlovi” Nizomi va universitetning 2024-yil 4-sentabrdagi “Universitet iqtidorli talabalarini qo'llab-quvvatlash uchun ta'sis etilgan stipendiyalar tanlovini tashkil etish va o'tkazish to'g'risida”gi 01-179-sonli buyrug'ida berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida universitetda “Iqtidor” tanlovi o'tkazilgani haqida ma'lumot berdi. Tanlovning fakultet bosqichidan 76 nafar talaba universitet bosqichiga yo'llanma oldi. Universitet bosqichida esa 36 nafara talaba ishtirok etdi. Tanlov ishtirokchilarining sinov imtihonlari natijalari hamda erishgan o'quv-uslubiy, ilmiy-innovatsion, ma'naviy-ma'rifiy yutuqlari indikatorini sarhisob qilinib, quyida nomlari keltirilgan talabalar tanlov g'oliblari bo'lishdi:

№	Talabaning F.I.Sh.	Talabaning fakulteti, ta'lim yo'nalishi, bosqichi	Nominatsiya nomi
1.	Sirojiddinov Odiljon Ilhomjonovich	Pedagogika fakulteti Maktab menejmenti, 3-bosqich talabasi	“Iftixor” nominatsiyasi
2.	Babakulova Farangiz Uktamovna	Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya yo'nalishi, 3-bosqich	“Iftixor” nominatsiyasi

3.	Ergasheva Ruxsora Alisher qizi	Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi	"Tamaddun" nominatsiyasi
4.	Anvarova Saodat Sayfulla qizi	Boshlang'ich ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi, 3-bosqich talabasi	"Tamaddun" nominatsiyasi
5.	Raxmatullayeva Nozima Nodirbek qizi	Turizm fakulteti Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili yo'nalishi, 3-bosqich talabasi	"Bunyodkor" nominatsiyasi
6.	Turg'unboyeva Parvina Ashirboy qizi	Turizm fakulteti Gid hamrohligi va tarjimonlik faoliyati (ingliz tili), 3-bosqich talabasi	"Bunyodkor" nominatsiyasi
7.	Xasanov Xojimurod To'ychiboy o'g'li	Turizm fakulteti Turizm (faoliyat yo'nalishlari bo'yicha) yo'nalishi, 3-bosqich talabasi	"E'tirof" nominatsiyasi
8.	Avazbekova Parvina Muhammadmurod qizi	Turizm fakulteti Turizm sohasida xizmatlar texnologiyasini tashkil etish yo'nalishi, 3-bosqich talabasi	"E'tirof" nominatsiyasi

Yuqorida nomlari keltirilgan talabalar universitet iqtidorli talabalarini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladigan tanlovda g'olib bo'lganligi va universitet Kengashida tasdiqlashga tavsiya etilganligi to'g'risida aytib o'tdi.

QAROR QILINDI:

1. Iqtidorli talabalarning ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi boshlig'i J.Q.Abdusamatov axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.
2. Universitet iqtidorli talabalarini rag'batlantirish maqsadida o'tkaziladigan "Iqtidor" tanlovi g'oliblari tasdiqlansin.

Rektor

Kotib

Kotib

G.I.Muxamedov

F.A.Do'smanov

F.A.Do'smanov

Ko'chirma asliga to'g'ri

